



XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 12-yanvar

VII-23-5-5-0-K/26

Navoiy viloyati

Navoiy viloyati hududidagi maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun to'lov tariflarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5-sonli Farmoni, viloyat Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasining 2025-yil 16-dekabrda 02/884-sonli xati, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 15-dekabrda 01-12/20-11-38/3356-sonli xulosasi, viloyat hokimi o'rinbosarining 2025-yil 19-dekabrda 600/16-26-sonli bildirgi xati, viloyat hokimi o'rinbosari A.Niyozovning viloyat hududida maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun to'lov tariflarini ko'rib chiqish to'g'risidagi axboroti hamda bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, hududlardagi maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini takomillashtirish, ekologik hamda sanitariya holatini yanada yaxshilash maqsadida, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5-sonli Farmoni ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Navoiy viloyati hududidagi maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun to'lov tariflari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi (N.Boltayev), viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi (N.Safoyev), viloyat Sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi boshqarmasi (Z.Azimov) shahar va tumanlar hokimliklari fuqarolarning huquqiy va sanitariya-ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

4. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Sh.Jumayev), Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish Agentligining Navoiy viloyat boshqarmasi (Sh.G'aybulloyev), O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi viloyat boshqarmasi (N.Toshev) bilan birgalikda mazkur Kengash qarori bilan tasdiqlangan viloyat hududlarida maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun majburiy to'lov tariflarini o'rnatilgan tartibda qo'llab borilishi yuzasidan nazorat tadbirlari olib borsin.

5. Viloyat hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi (Sh.Raubayeva), viloyat teleradiokompaniyasi (A.Mukimov), “Do'stlik bayrog'i” va “Знамя дружбы” gazetalari tahririyati davlat korxonasi (B.Umarov)ga olib borilayotgan ishlarni doimiy ravishda ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2025-yil 1-fevraldagi VII-5-10-5-0-K/25-sonli qarorining 1-ilovasi, xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2025-yil 5-iyundagi VII-13-69-5-0-K/25-sonli qarori hamda xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2025-yil 5-iyundagi VII-13-70-5-0-K/25-sonli qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingandan boshlab, 15 kundan so'ng kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimi o'rinbosari (A.Niyozov) hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (N.Isoqov) va agrar, suv xo'jaligi va ekologiya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Jalilov) lar zimmlariga yuklatilsin.

Sessiya raisi



**HAMRAYEV
JAMOLIDDIN
JUMAQULOVICH**

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2026-yil 12-yanvardagi
VII-23-5-5-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**Navoiy viloyati hududida maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish
bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun to'lov tariflarini tasdiqlash to'g'risida
TARIFLARI**

so'mda

T/r	Aholi uchun (Bir oyda bir kishiga)		Yuridik tashkilotlarga (1 m ³ chiqindi uchun)	
	QQS siz	QQS bilan	QQS siz	QQS bilan
1	7 054	7 900	85 500	95 760